



GLOBAL INTEGRATSIYA SHAROITIDA TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI: MUAMMO VA VAZIFALAR

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 30-aprel – 1-may



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**TÜRKİYE CUMHURİYETİ ATATÜRK KÜLTÜR
DİL VE TARİH YÜKSEK KURUMU
TÜRK DİL KURUMU**

ANKARA HACI BAYRAM VELİ ÜNİVERSİTESİ

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O'ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI**

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O'QITISH VA
MALAKA OSHIRISH MARKAZI**

“GLOBAL INTEGRATSIYA SHAROITIDA TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI: MUAMMO VA VAZIFALAR”

mavzusidagi ikkinchi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 30-aprel – 1-may

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO'K: 494.3

KBK: 81.63

G 54

Global integratsiya sharoitida turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vaz
[Matn]: to'plam. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 674 b.

“Global integratsiya sharoitida turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalar” mavzusidagi ikkinchi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami – turkiy tillar alifbo va imlo muammolari, turkiy tillarning grammatik qurilishi, grammatik muammolari, turkiy tillar leksikasi va terminologiyasi masalalari, modellashirish muammolari, turkiy tillar taraqqiyoti, shuningdek, tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi, ko'rsatma lingvistikasi, lingvistik ekspertiza, milliy terminologiya, o'quv lug'atchiligi, ona tili ta'limi, lingvoma'naviyatshunoslik kabi qator zamonaviy amaliy lingvistik yo'nalishlarini qamrab olgan ilmiy-amaliy anjuman.

Anjuman materiallari faqat bir marotaba nashr etiladi.

To'plamning elektron shakli ham e'lon qilinadi.

To'plam va uning elektron shakli bir xil kuchga ega.

Anjumanning maqsadi – turkiy tillar taraqqiyotiga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaralarga undaydigan, yangi, mustahkam konsepsiyaga ega, boshqa jurnal va anjuman materiallarida nashr etilmagan tadqiqotlar nashrini amalga oshirishdir.

Ushbu to'plam tilshunos olimlar, ilm-fan vakillarining talab va takliflariga muvofiq Buxoro viloyatining Kogon tumanida ikkinchi marotaba o'tkazilgan **“Global integratsiya sharoitida turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalar”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilarining ilmiy maqola va tezislari jamlangan ilmiy materialdir.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar).

Bosh muharrir

f.f.d., akademik Sh.Sirojiddinov

Tahrir kengashi

Muyassar Saparniyozova, Muhayyo Hakimova, Marhabo Umirzoqova, Farhod Bobojonov, Nizomiddin Qo'ldoshev, Husniddin Suyunov, Sobir Ahmedov, Hamid Yodgorov, Jo'ra Xudoyberdiyev, Shahboz Zarimasov, O'ktam Begimov, Abdurashid To'ychiyev

Tahrir hay'ati

Samixon Ashirboyev (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Zaynabiddin Abdurashidov (Turkiya) – filologiya fanlari doktori, professor
Baxtiyor Mengliyev (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Abdulhay Sobirov (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Muhammad Hakimov (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Murodqosim Abdiyev (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Bibish Jo'rayeva (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Sulton Normamatov (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Gulaisha Sagidolda (Qozog'iston) – filologiya fanlari doktori, professor
Navrouzova Nurida (Ozarbayjon) – filologiya fanlari doktori, professor
Nodir Jo'raqo'ziyev (O'zbekiston) – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDAGI MAQOLLARNING ZAMON NUQTAYI NAZARIDAN QIYOSIY TAHLILI

Bibish JO‘RAYEVA *

Annotatsiya

Mahmud ibn ul Xusayn ibn Koshg‘ariy turkiy xalqlar orasida yetishib chiqqan birinchi qomusiy turkolog olim, uning tug‘ilgan va vafot etgan yili noma‘lum, tarjimayi holiga oid bevosita tarixiy manbalar yo‘q. Hozirga qadar tadqiqotchilar uning hayoti xususiyada “Devonu lug‘otit turk” asari asosida va qoraxoniylar davri tarixiga oid boshqa manbalarga suyanib quyidagi taxminlarni bayon qiladilar. Mahmud Koshg‘ariy 1029–1038-yillar orasida Koshg‘arda tug‘ilgan. Uning qoraxoniylar sulolasiga mansub bo‘lishi Koshg‘arda yaxshi ma‘lumot olishga imkon bergan. Buni Mahmud Koshg‘ariyning bobolari haqida aytgan gaplari ham tasdiqlaydi. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, uning bobolari turk shaharlarini somoniylardan tortib olgan, qoraxoniylar sulolasiga asos solgan.

Mahmud Koshg‘ariy Buxoro, Nishopur, Samarqand, Marv, Bog‘dod kabi shaharlarda tahsil ko‘radi, arab tilini, arab filologiyasi sirlarini puxta o‘rganadi. Lekin u umrini turkiy xalqlar va ularning tilini tadqiq etishga bag‘ishlaydi.

M.Koshg‘ariy ko‘p yillar davomida to‘plagan boy materiallar asosida “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) nomli uch jildlik asar yozadi. Muallif “Devon”da so‘zlarning turli ma‘nolari va ma‘no nozikliklarini izohlash bilan birga, turli qabila tillari o‘rtasida bo‘lgan xarakterli fonetik va morfologik farqlar, shu farqlarni asoslovchi ko‘plab maqollarni ham ko‘rsatib o‘tadi. Bu jihatdan devon faqat izohli lug‘atgina bo‘lib qolmay, XI asrning noyob madaniy-lingvistik durdonasi hamdir.

Koshg‘ariy asari, o‘zi ta’kidlashicha, “Oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma‘lum bo‘lmagan alohida bir tartibda” tuzilgan. Unda ko‘p shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ko‘rsatilgan. Lug‘atda turkiy so‘z tuzilishi an‘analari, jumladan, so‘z tartibi, fe‘l shakllari, so‘z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan. Muallif ko‘rsatishicha, kitob 8 bo‘limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo‘limda ot-ism so‘zlar, fe‘llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. “Devon”da 7500 dan oshiq turkiy so‘z va iboralar izohlangan. Lug‘atda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, o‘lka nomlari, daryo, tog‘, yaylov, vodi, dara, yo‘l, dovon, ko‘l, soy kabi jug‘rofiy atamalar, turli qabila, urug‘, elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi. Unda izohlangan grammatik ko‘rsatkichlar morfemalar hisobi ham mingga yaqin. Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, 700 satrdan oshiq she‘riy parchalar ham ushbu asar sahifalaridan o‘rin olgan.

Maqolada “Devonu lug‘otit turk” asaridagi maqollarning zamon nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, “Devonu lug‘otit turk”, xalq og‘zaki ijodi, semantik o‘zgarish, obrazlar tizimi.

* Filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari. bibish.jrayeva@mail.ru

Comparative Analysis of Proverbs in "Devonu Lug'otit Turk" from the Point of Time

Summary

Mahmud ibn ul Husain ibn Koshghari is the first encyclopedist Turkologist who grew up among the Turkic peoples. The year of his birth and death is unknown, and there are no direct historical sources of his biography. Until now, researchers have made the following assumptions based on his life in particular, based on the work "Devonu lug'otit turk" and other sources related to the history of the Karakhanids. Mahmud Koshgari was born in Koshgar between 1029-1038. His belonging to the Karakhanid dynasty allowed him to get a good education in Kashgar. This is also confirmed by what Mahmud Koshgari said about his grandfathers. According to Mahmud Koshgari, his grandfathers took the Turkish cities from the Somanites and founded the Karakhanid dynasty.

Mahmud Koshgari studied in cities such as Bukhara, Nishapur, Samarkand, Marv, and Baghdad, thoroughly studied the Arabic language and the secrets of Arabic philology. But he devoted his life to the study of the Turkic peoples and their language.

M. Koshgari wrote a three-volume work entitled "Devonu lug'otit turk" ("Devotion of Turkish words") on the basis of these materials collected over many years. In "Devon", the author explains the different meanings and subtleties of the words, as well as the characteristic phonetic and morphological differences between the languages of different tribes, as well as many proverbs justifying these differences. In this respect, Divan is not only an explanatory dictionary, but also a unique cultural-linguistic masterpiece of the 11th century.

Koshgari's work, as he himself stated, was compiled "in a special order that no one has compiled before and that is unknown to anyone." It shows comparative rules, grammatical, morphological, lexical, semantic signs related to many linguistics. The dictionary describes the traditions of Turkish word formation, including word order, verb forms, and the etymology of words. According to the author, the book consists of 8 sections, introduction and conclusion. In each section, nouns and verbs are separated for convenience. More than 7,500 Turkish words and phrases are explained in "Devon". The dictionary contains hundreds of people's names, names of cities and villages, countries, geographical terms such as rivers, mountains, pastures, valleys, gorges, roads, passes, lakes, streams, various tribes, clans, nations, planets, stars, and seasons. The number of grammatical indicators explained in it is about a thousand morphemes. Ancient legends and narratives about the history of the Turkic peoples, about 300 proverbs and sayings, wise words, more than 700 lines of poetry are also included in the pages of this work.

In the article, a comparative analysis of the proverbs in the work "Devonu Lug'otit Turk" is carried out from the point of view of time.

Key words: proverb, "Devonu Lug'otit Turk", folklore, semantic change, system of images.

Kirish

Maqolada qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri sanalmish Mahmud Koshgariyning "Devonu lug'atit turk" nomli qomusiy asari turkiy tillarning o'sha davrdagi fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot beruvchi qimmatli manba ekanligi; asardagi maqollarni hozirgi davr nuqtayi nazaridan ikki turga ajratish mumkinligi, birinchi turga "Devonu lug'otit

turk"da ham, hozirda ham mavjud bo'lgan maqollar kirishi, u o'z navbatida, "Devonu lug'otit turk"da ham, hozirda ham mavjud bo'lgan maqollar (*Tilky öz iniga yrsa yuz bolur* – Tulki o'z iniga qarab irrillasa qo'tir bo'ladi; *Сармийн азуқи аргэ болса, юл үзэ жэр* – Savdogarning moli toza, beshubha bo'lsa, yo'l ustida yoyadi; *А:ч нэ жэмас, тоқ нэ тэмас* – och nimalar yemaydi, to'q nimalar demaydi); "Devonu lug'otit turk"dagi mazmuni saqlangan holda obrazlar tizimi o'zgargan maqollar (*Ил жарал інда, сарм асінда* – Temirni qizig'ida bos. Qolgan ishga qor yog'ar; *Јамийн јагліз тикүсіндә(н) дэиүн қанліз јузрук јіз* – Uzoqdagi quyuqdan yaqindagi o'pka yaxshi; *Билмийэк билмәзүк кииидә(н)* – Dushmaningdan qo'rqma, munofiqdan qo'rq); bir qismi unutilib, qolgan qismi saqlangan maqollar (*Қуи қанатин, эр атин* – Qush qanoti bilan; *Арпасіз ат аиумас, арқасіз ат чэрик сійумас* – Arpasiz ot qir osholmas; *Өкүнүчү үміндә артамур* – Ahmoq o'zini maqtar) kabi turlarga bo'linishi misollar asosida dalillangan. Ikkinchi turga "Devonu lug'otit turk"da mavjud bo'lib, hozirda iste'moldan chiqqan maqollar sifatida "Anaci mōulūk jywқа janar, oglī māmik қоша қанар – onasi hiyla qilib yupqa non yopsa, bolasi ziyraklik qilib qo'sha-qo'sha (ikkita-ikkita)dan) og'ziga soladi"; "Jagīn эрсә кэрәл јундакī тэзир – dushmaningda bo'lsa ham mol bo'lsin, eng kami dushman otining tezagi tegadi, uni yoqib foydalanasan"; *Бор болмазін сиркә болма* – sharob bo'lishdan oldin sirka bo'lma" kabi paremiologik birliklar tahlil etilgan. Maqollarning "Devonu lug'otit turk"da mavjud bo'lgan mazmuni saqlangan holda obrazlar tizimi o'zgarishining, bir qismi unutilib, qolgan qismi saqlanishining yoki asarda mavjud bo'lib, hozirda iste'moldan chiqqishining tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, maishiy sabablari bo'lib, ular maqolada batafsil yoritilgan.

Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri sanalmish Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" nomli qomusiy asari turkiy tillarning o'sha davrdagi fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir. Shu bilan birga turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi namunalarini aks ettirgan yirik badiiy asar sifatida ham hanuz tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Ta'kid joizki, bahosiga jahon xazinalari kamlik qiluvchi deya ta'rif berilgan "Devonu lug'otit turk" asarini ko'zdan kechirgan har qanday kitobxon sohasidan qat'iy nazar o'zi uchun juda qiziqarli va kerakli ma'lumotlarni olishi shubhasiz. Chunki kitob shu qadar o'zida ko'plab rang-barang ma'lumotlarni mujassam etganki, ularni tahlil va tavsif qilish uchun ko'p yillar kerak bo'ladi (Абдулахатов, Тошпўлатов, Носирова, Жырабаева; 2013, 3-b.).

Shu ma'noda "Devonu lug'otit turk" qomusiy asar bo'lib, yuqorida nomlari zikr etilgan predmet va holatlardan kelib chiqqan holda ko'plab maqollar ham asarda keltirilgan. "Devonu lug'otit turk"dagi maqollarni hozirgi davr nuqtayi nazaridan 2 turga ajratish mumkin:

I. "Devonu lug'otit turk" da ham, hozirda ham mavjud bo'lgan maqollar

Bu, o'z navbatida, uchga bo'linadi:

I. 1. "Devonu lug'otit turk"dagi shaklini ham, mazmunini ham saqlagan maqollar.

1. *Tilky öz iniga yrsa yuz bolur* – tulki o'z uyasiga qarab irrillasa (ulisa, hursa) qo'tir bo'ladi. Bu maqol o'z elini, urug'ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi (Koshg'ariy I, 1960, 88-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *Tulki o'z iniga qarab irrillasa qo'tir bo'ladi.*

2. *Сармин азықи аризе болса, јол үзä jöp* – savdogarning moli toza, beshubha bo'lsa, yo'l ustida yeydi. Bu maqol aytgan so'zining uddasidan chiqqan olmagan, qonmas maqtancholarga nisbatan qo'llaniladi (Koshg'ariy I, 1960, 97-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *Savdogarning moli toza, beshubha bo'lsa, yo'l ustida yoyadi.*

3. *А:ч нэ jэмас, тоқ нэ тэмас* – och nimalar yemaydi, to'q nimalar demaydi (Koshg'ariy I, 1960, 108-b.).

4. *Киуи алаci ичмин, јилқи алаci маумин* deydilar, ya'ni odamning olasi (buzuq fikri) ichida; yilqiniki toshida, sirtida. Bu maqol dilidagi xiyonatni yashirib, yoqimli muomala qiluvchilarga nisbatan qo'llanadi (Koshg'ariy I, 1960, 117-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *Odamning olasi ichida, molning olasi tashida.*

5. *Беш әрәңәк тўз әрмәс* – besh qo'l (barmoq) barobar emas. Shunga o'xshash odamlar ham bir-birlaridan farq qiladilar (Koshg'ariy I, 1960, 143-b.).

6. *It icipmac, am mēnmāc mēmā* – it qopmaydi, ot tepmaydi dema (Koshg'ariy I, 1960, 188-b.).

7. *С:уw ичүрмәсрә сүм бәр* – suv ichirmasga sut ichir. Senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil, degan ma'noda ishlatiladi (Koshg'ariy I, 1960, 97-b.).

8. *Кәңәулик билік үзрәуір, кәңәуицз билік онрауыр* – maslahatlik ish borgan sari yaxshilashib boradi, bemaslahat ish borgan sari buzilishga yuz tutadi (Koshg'ariy I, 1960, 235-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Maslahatli ish tarqalmas.*

9. *Күзәкү узун болса әлік күймәс* – kosov uzun bo'lsa, qo'l kuymas. Bu maqolda bola-chaqasi ko'p odam farovon yashashi haqida gapiriladi (Koshg'ariy I, 1960, 418-b.).

10. *Тәwәј сикінсә шәккә јук чикар* – tuya silkinsa, undan bir eshakning yuki chiqadi. Bu maqol kichik ishni tashlab, katta ishga kirishishga undab aytiladi (Koshg'ariy II, 1963, 286-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Tuya silkinsa, undan bir eshakning yuki tushadi.*

11. *Амәci ачиз аиміла јәсә оғлиниң тиуи қамар* – otasi achchiq olma yesa, o'g'lining tishi qamashar. Bu maqol otasi qilgan jinoyat, otasi o'lgach, bolasiga ham isnod tegizadi degan ma'noda qo'llanadi (Koshg'ariy II, 1963, 360-b.).

12. *Барчин јамағи барчинқа, қарин јамағи қаринқа* – ipaklikka ipaklik yamoq munosib bo'lsa, yungga yung yamoq loyikdir. Bu maqol har narsa o'ziga munosib bo'lishi kerak, degan ma'noda qo'llanadi (Koshg'ariy III, 1963, 35-b.).

13. *Јилан кәндә әрpicin билмәс, тәwәј бојин әрpi тәр* – ilon o'zining egriligini bilmaydi-da, tuyaning bo'yini egri deydi (Koshg'ariy I, 1960, 147-b.).

14. *Сачар тәуоин қорқмиш куи қирқ јил азри јизан үзә қонмас* – tuzoqdan bir marta qo'rqqan qush qirq yilgacha ayriliq yog'ochga qo'nmaydi (Koshg'ariy II, 1963, 383-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Tuzoqdan bir marta qo'rqqan qush qirq yilgacha ayri yog'ochga qo'nmas.*

15. *Қаніз қан билә јумас* – qonni qon bilan yuvilmaydi, ya'ni to'polon to'polon bilan bostirilmaydi (Koshg'ariy III, 1963, 74-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *Qonni qon bilan yuvib bo'lmaydi.*

16. *Тәwәј мунуб қој ара јанумас* – tuya mingan odam qo'y orasiga yashirinmaydi (Koshg'ariy III, 1963, 68-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *Tuya mingan odam qo'y orasiga yashirinmaydi.*

17. *Арслан қариса, сичәан омин кәзәуір* – arslon qarisa, sichqon inini poylaydi (Koshg'ariy III, 1963, 279-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *bo'ydoq odamga ellik gaz bo'z ham ishtonini yetmaydi.*

3. *Arpaciz am anuymac, arpaciz am vepik cijymac* – arpasiz ot qir osholmas yordamchisiz yigit (bahodir) jangda yenga olmaydi. Bu maqol ishda hamkorlik chaqirish ma'nosida qo'llanadi (Koshg'ariy I, 1960, 145-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *arpasiz ot qir osholmas.*

4. *Azyktyz apyx epmac* – ozig'i bor odam safarda tez tolmaydi, charchamaydi (Koshg'ariy I, 1960, 164-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Ozig'lik ot horimas.*

5. *Tauiz icy önmiu kēpāk* – toshni chaynashga qodir bo'lmagan kishi uni o'pish kerak. Bu maqol maqsadga erishish uchun kishi ish ustida yumshoq muomala bo'lishiga undab aytiladi (Koshg'ariy I, 1960, 176-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *Og'irning ustidan, yengilning ostidan.*

6. *Kypye jizav ezilmac, Kypmiu kipiū myēylmac.*

Quruq yog'och egilmaydi, qurigan kirish (novda) bog'lanmaydi, tugulmaydi. Bu maqol biron narsani ishlatishda haddan oshirib yuborilgandan keyin u narsa avvalgi holiga qaytmaydi, degan mazmunda ishlatiladi (Koshg'ariy I, 1960, 206-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Quruq yog'och egilmas.*

7. *Ökytyçi yminda apmartyr* – o'zini maqtovchi, albatta, ishtonini bulg'atadi, ya'ni maqtanchiq ko'pincha gapning uddasidan chiqolmay xijolat tortadi. Bu maqol o'zini maqtamaslikka undab qo'llanadi (Koshg'ariy I, 1960, 211-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *Ahmoq o'zini maqtar.*

8. *Sinamaca apcīkar, saqūmaca ymcykar* – sinamasa odam aldanadi, avvalda ishning natijasi haqida o'ylamasa, yengiladi (yutqizadi). Bu maqol ishda tajribaga suyanish kerakligiga, o'ylab ish qilishga undab aytiladi (Koshg'ariy I, 1960, 245-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Sinamagan otning sirtidan o'tma.*

9. *Kuryk kanyk azizka jaramac, Kuryk cōz kuloqqa jaqūm mac* – quruq qoshiq og'izga yoqmas, quruq so'z quloqqa yoqmas. Bu maqolda birovdan yordam so'rash uchun unga ham biron foyda ko'rsatish kerak, degan ma'noda qo'llanadi (Koshg'ariy I, 1960, 364-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Quruq qoshiq og'iz yirtar.*

10. *Om mymūnciz bolmac, jizit jazukciz bolmac* – olov tutunsiz bo'lmas, yigit gunohsiz bo'lmas (Koshg'ariy I, 1960, 380-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *Olov tutunsiz bo'lmas.*

11. *Əwāk cināk cymkā myuyp* – shoshqoq pashsha sutga tushadi (va g'arq bo'lib o'ladi). Bu maqol ishda shoshmaslikka undab aytiladi (Koshg'ariy II, 1963, 21-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Shoshgan pashsha sutga tushar.*

12. *Tajeau jryprāni milky cōwmac* – yugurik (chopqir) tozini tulki sevmaydi. Chunki tozi tulkini oladi. Bu maqol zamondoshlari orasida ilmi bo'lib, ularning hasad va dushmanliklariga duchor bo'lgan kishiga aytiladi (Koshg'ariy II, 1963, 23-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Yugurik tozini tulki suymas.*

13. *Jyeyrakāda apmyk azak kycylca yuijyp* – odam oyog'ini ko'rparasidan ortiq uzatsa, oyog'i uvishadi, sovuq qotadi. Bu maqol odam o'z haddidan oshmaslikka undalib aytiladi (Koshg'ariy II, 1963, 158-b.).

Bugungi kundagi muqobili: *Ko'rparangga qarab oyoq uzat.*

14. *Au mamizi myz jy epū jōmac* – osh tuz bilan totli, lekin lagan bilan yolg'iz tuzning o'zi yeyilmaydi (Koshg'ariy III, 1963, 38-b.). Bugungi kundagi muqobili: *Oshning ta'mi tuz bilan.*

14. *Tymün qonypca, iulānyr* – kim tutunni qo'zg'otlsa, o'ziga tutaydi. Bu maqol bir fitnani qo'zg'atgan kishiga ham u *Əwlik moʻzypca kōzi jolqa bolur* fitna alami yetadi degan maqsadda qo'llanadi (Koshg'ariy II, 1963, 75-b.).

15. *Əwlik moʻzypca kōzi jolqa bolur* – uy egasi mehmonni to'ydirsa, mehmon ko'z ketishga o'tlanib, yo'lda bo'ladi. Bu maqol ziyofatdan so'ng ketmoq uchun uzr so'ragan mehmonga nisbatan qo'llanadi (Koshg'ariy II, 1963, 205-b.).

16. *Tamciz tūrpk bolmas, bauciz bōrk bolmas*. Forslar bor yerda turklar albatta bor. Boshsiz bo'rk bo'lmagani kabi, turksiz fors bo'lmaydi. Bosh bor yerda bo'rk, albatta, bor (Koshg'ariy II, 1963, 306-b.).

17. *Qilich tamiksa iu junchir, ər tamiksa ət tunchir* – qilich zanglasa, botimning holi yomon bo'ladi. Chunonchi, turk eronli axloqi bilan yursa, go'shti o'zgaradi – hidlanadi. Bu maqolni botirlikka undalgan kishi haqida har jinsning o'z jinsi bilan yashashi haqida aytiladi (Koshg'ariy II, 1963, 326-b.).

18. *Onrak jasiqōin moʻzlye ja chikar* – eski yoy idishidan buklangan yoy ham chiqadi (Koshg'ariy II, 1963, 24-b.).

19. *Kimin bila qash bolca, jaiuin jakmac* (hikmatli so'z) – qosh toshi (u bir oq, tiniq toshdir, odamlar uni uzukka ko'z qilib taqadilar) kimda bo'lsa, unga chaqmoq zarar bermaydi. Chunki u toshning tabiati shunday. Hattoki, u toshni bo'zga o'rab o'tga tashlansa, bo'z ham, tosh ham kuymaydi. Bu sinalgandir. Tashna odam og'ziga qo'ysa, tashnalikdan qutuladi (Koshg'ariy II, 1963, 28-b.).

20. *Qilnu bilcā, qizil kōzār, jaranu bilcā, jaiuin kōzār* – xotin nozu karashmani bilsa qizil rang ipakli kiyadi, yoqishni bilsa, ko'k ipakli kiyadi, ya'ni er hurmatiga sazovor bo'lgan kiyim kiyinadi (Koshg'ariy I, 1960, 28-b.).

21. *Kūmyū künge yuca altun azakiñ kōlip* – kumush quyoshga qo'nsa, oltin o'oyig'i bilan keladi. Bu maqol ma'lum maqsadni amalga oshirish uchun pulni ayamay sarf qilishga undab aytiladi (Koshg'ariy I, 1960, 177-b.).

22. *Altıar biplā yruuma, bōelār biplā myruuma* – botirlar bilan urishma, amirlar bilan xusumatlashma, tiklashma (Koshg'ariy I, 1960, 192-b.).

23. *Jalīnuq urulmīu qan ol, aēzi jazilīb alqīnur* – odam bolasi puflab shishirilgan mesh kabidir; og'zi ochilsa, yel uni yo'qotadi, so'ndiradi (Koshg'ariy I, 1960, 204-b.).

24. *Bir myjīn baii aēpica, qamyē myjīn baii aēpīmac* – bir g'ayri din kattasining boshi og'risa, hammasining boshi og'rimaydi. Bu maqol do'stlar muvofiq topib istaganlari, yegan-ichganlari holda, birining buni istamaganligini anglatish uchun qo'llanadi (Koshg'ariy I, 1960, 272-b.).

25. *Alīm kōch qalca, azakiñnur* – olinadigan narsa qarzdorda uzoq vaqt qolsa, oyoq chiqaradi, ya'ni qarz bergan odam qarzini undirish uchun uning ketidan yuradi (Koshg'ariy I, 1960, 288-b.).

Kōl yreūnchā kōz yuca jōe – kulni puflaguncha, cho'ni puflagan yaxshi. Bu maqol kichik ishni tashlab katta ishga urinuvchilarga aytilgan (Koshg'ariy I, 1960, 324-b.).

26. *Qul jazi im bōpi* – qul dushman, u qo'lidan kelsa egasining molidan olib, fursat topib qochish payiga tushadi. It ham xonadon uchun bo'ridir. Chunki u yeydigan narsa topsa, undan o'zini tiya olmaydi. Bu maqol qulning xo'jayiniga kam vafo qilishini bildirish uchun so'zlanadi (Koshg'ariy I, 1960, 324-b.).

Xulosa

Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi sababli o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida necha martalab sinovlardan

o'tadi. Binobarin, maqollar ham shaklan, ham mazmunan juda kam o'zgarishlarga uchrab, uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Har bir maqolning xalq orasida tarqalishi ham uning yaratilishi kabi sekinlik bilan amalga oshadi. Chunki muayyan maqolni qabul qilib oluvchi jug'rofiy muhit uni o'z sharoitida qaytadan sinovdan o'tkazib olgandan keyingina o'z mulkiga aylantiradi.

Maqollarning "Devonu lug'otit turk"da mavjud bo'lgan mazmuni saqlangan holda obrazlar tizimi o'zgarishining, bir qismi unutilib, qolgan qismi saqlanishining yoki asarda mavjud bo'lib, hozirda iste'moldan chiqqishining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy sabablari bo'lib; ularni ilmiy tadqiq etish kelgusidagi ishlarimizdandir. Chunonchi "Devonu lug'otit turk"dagi maqollarning tarixiy taraqqiyotiga aniqlik kiritish, ulardagi shakily va semantik o'zgarishlarni aniqlash xalq hayotini chuqur tadqiq etishdan tashqari uning ma'naviy va madaniy hayoti bo'yicha ham bebaho ma'lumotlar beradi.

Adabiyotlar

Кошғарий М. (1960) *Туркий сўзлар девони (Девону луготит турк)*. Уч томлик.

I том.

Кошғарий М. (1963) *Туркий сўзлар девони (Девону луготит турк)*. Уч томлик.

II том.

Кошғарий М. (1963) *Туркий сўзлар девони (Девону луготит турк)*. Уч томлик.

III том.

Başaran Selman. (1994) *Hadislerin Turk Atasozlerine Tesiri*. Bursa.

MANAS Sosyal Araştırmalar Dergisi. (2019).

Абдулахатов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Журабаева У. (2013) *Маҳмуд*

Кошғарийнинг "Девону луготит турк" асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. Янги аср авлоди.

Саидов Ё., Муқимова Г. (2015) "Девону луготит турк"даги халқ мақоллари.

Бухоро.

Inomjon Azimov SO'ZBOSHI.....	3
Abdulhay Sobirov, Zamira Djurabayeva ONA TILIGA HURMAT – MILLATGA HURMAT BELGISI.....	5
Sidikjon Muminov, Anvarjon Yuldashev SO'ZNING IFODA QUDRATI.....	10
Baxtiyor Mengliyev TURKIY TILLARNING MUSHTARAK LINGVISTIK TA'LIMOTINI YARATISH HAQIDA.....	14
Nadir Məmmədli DİLÇİLİK VƏ SÜNİ İNTELLEKT: SÜNİ İNTELLEKTŁƏ AZZƏRBAYCAN DİLİNİN SÖZ BAZASININ YARADILMASI.....	19
Murodqosim Abdiyev SAMARQANDLIK ERON TURKHLARI TARIXI XUSUSIDA.....	24
Veli Savaş Yelok TÜRKÇE VE ÖZBEKÇE ARASINDA YAPILAN EDEBİ ESER AKTARMALARI ÜZERİNE DÜŞÜNCELER VE BAZI TEKLİFLER.....	33
Zaynabidin Abdirashidov NIKOLAY OSTROUMOV'UN SART DİLİ ETIMOLOJİSİ: DİLBİLİMSEL VE ETNOGRAFIK BİR ANALİZ.....	38
Inomjon Azimov, Gulbahor Azimova IMLO QOIDALARINI TUZISH UCHUN HARAKATLAR.....	47
Мария Чертыкова ХАКАС ТІЛІНДЕ КІЗІНІҢ ХЫЛИИҢ / КӨҢНІН СОМНАПЧАТХАН СӨСТЕР.....	55
Sultonbek Normamatov O'ZBEK TERMINOLOGIK LUG'ATCHILIGI TARIXIDAN.....	65
Bibish Jo'rayeva "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDAGI MAQOLLARNING ZAMON NUQTAYI NAZARIDAN QIYOSIY TAHLILI.....	71
Ооржак Байлак АНАЛИТИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ НЕОБХОДИМОСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ В ТУВИНСКОМ ЯЗЫКЕ (В СОПОСТАВЛЕНИИ С ТЮРКСКИМИ И МОНГОЛЬСКИМИ ЯЗЫКАМИ).....	80